

## ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION VA INTEGRATSION DUNYOQARASHLARNING AHAMIYATI

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-kurs magistranti  
Hamzayeva Nigina A'zamjonovna

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda fanlarni o'qitishda jahon tajribalaridan foydalanish davr talabidir. Shu o'rinda ta'lim jarayonida innovatsion va integratsion darslarni o'tishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola ta'lim jarayonida innovatsion va integratsion dunyoqarashning qay darajada muhim ekanligiga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim jarayoni, texnologiya, innovatsiya, integratsiya, pedagog, ta'lim samaradorligi.

### ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ МИРОВОЗЗРЕНИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация:** В настоящее время использование мирового опыта в преподавании предметов является требованием эпохи. Здесь важно наладить инновационные и интеграционные занятия в образовательном процессе. Эта статья посвящена тому, насколько важно инновационное и интеграционное мировоззрение в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, технологии, инновации и интеграция, педагогика, эффективности образования.

### THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE AND INTEGRATION WORLDVIEWS IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS

**Annotation:** Currently, the use of world experience in teaching subjects is a requirement of the era. It is important to establish innovative and integration classes in the educational process. This article is devoted to the importance of an innovative and integrative worldview in the educational process.

**Keywords:** educational process, technology, innovation and integration, pedagogy, improving the effectiveness of education.

Ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddatli rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalorida yangiliklar yaratish, mavjud nazariya va g'oyalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Asrlar davomida jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim – tarbiya jarayonida o'z aksini topib kelmoqda. Shu sababli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar,

yangilanishlarga muvofiq ravishda ta'lim-tarbiya mazmuni ham takomillashib borishi zarur. Mazkur talabning to'la qondirilishida ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar mohiyatini anglay olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tarbiya jarayonida integratsiyalashgan tarbiya va ta'limning ustuvor o'rin egallashi jamiyat va ta'lim-tarbiya o'rtasida o'zaro aloqadorlikni qaror toptiradi. O'zbekiston Respublikasi sharoitida pedagogik integratsiyalarni yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish, mavjud pedagogik integratsiyalarni umumlashtirish va ommalashtirishdan iborat. Hozirgi davrda ta'lim-tarbiya tizimida integratsion va innovatsion jarayonlar juda tezkor darajada rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim- tarbiya sohasini integratsion yondashuv asosida olib borish uchun yagona o'ziga xos mexanizm yaratilgan. Bu sohada O'zbekiston Respublikasida ma'lum natijalarga erishilgan bo'lib, bu natijalar samarasi O'zbekiston Respublikasi va shu bilan birga Yevropa davlatlari uchun ham namuna bo'la oladigan eng qulay ta'lim tizimi modelini yaratishga harakat qilib kelinmoqda. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida integratsion va innovatsion jarayonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi muammosini ham hal qilish imkoniyatini beradi. Shu o'rinda savol tug'iladi: integratsiya nima, u qanday jarayon?

“**Integratsiya**” so'zi lotincha integration - tiklash, to'ldirish, “**integer**” butun so'zidan kelib chiqqan. Integratsiya g'oyasi XVIII asrning 20- yillarida ingliz olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan. Integratsiya muammosini hal etish borasida olimlar birmuncha ishlarni amalga oshirgan. Rivojlangan davlatlarda ta'lim mazmunini integratsiyalash borasida muhim va dolzarb amaliy ishlar qilinmoqda.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam berishi hech kimga sir emas. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi kerak bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalarini hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi-boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdan iboratdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqeali hodisalarning bir necha tomondan ko'rishi muhimdir:

- mantiqiy va emotsional tomondan
- badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada
- so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Shu bilan bir qatorda yurtimiz ta'lim sohasida innovatsion dunyoqarash ham rivojlanib bormoqda.

Bugungi kunda darslarda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. **“Innovatsiya”** so'zi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, uning tarjimasi *yangilanish, o'zgartirish, yangilik kiritish* degan ma'noni bildiradi. O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, o'qitish shakllarini izlaydi, ularni takomillashtiradi. Shu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi» atamaları qatoridan «pedagogik innovatsiya»lar atamasi mustahkam o'rin olmoqda.

Innovatsion ta'lim tizimi hozirgi davrda ta'lim sohasining barcha jabhalarida mutaxassislarning e'tiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimi hisoblanadi. Uning ta'limiy ahamiyatini anglagan pedagoglar an'anaviy ta'limni ilg'or innovatsiyalar bilan boyitib, ta'lim jarayonining samarali olib borishga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan mazkur yangi ta'lim shaklining asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir. Innovatsiyaning asosiy tushunchalari sifatida yangilik, g'oya, vosita (yangi metod)larni olish mumkin.

Yangilikni uzatish, undan foydalanish yo'li hamda aniq maqsadga yo'naltirish bilan odamlar ehtiyojini zamonaviy vositalar orqali ta'minlash mumkin. Albatta, bu kabi yangiliklar qandaydir sifat o'zgarishlariga olib keladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik ish faoliyatini sifat va samaradorlikni ta'minlashga, ta'limning jamiyatdagi hayotiy talablarga javob berishini yaqqol ko'rsatishni ta'minlaydi. Innovatsiyaning maqsadi – sarflanayotgan mablag' va kuchdan eng yuqori va sifatli natija olishdan iborat. Innovatsion muhit – bu pedagogik jamoada, umuman, ta'lim muassasasida shunday ijodiy, samimiy, do'stona sharoit tug'diradiki, unda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi, jamoada ichki intilish, moddiy va ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. Bu kabi muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, ishlashga tayyor novatorga aylanadi. Novator – yangilikni qabul qilish va amalga oshirishga tayyor shaxsdir. U o'zining shaxsiy pedagogik amaliyotida doimiy yangilik izlaydi, o'zlashtiradi va amalda qo'llaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoladi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, o'qituvchining bu faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish zamonning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonida, jumladan, taraqqiylashgan, innovatsion talablarga javob bera oladigan darslarda o'quvchilarni amaliyot orqali nazariy fikrlash, idrok etish jarayoniga tayyorlash mumkin. Bunday o'quv tizimini o'quvchiga tegishli qiziqish uyg'otmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun bosh vazifalardan biri sinfda innovatsiyalashgan o'quv jarayonini amalga oshirish uchun har bir o'quvchida shu o'quv tizimiga qiziqish uyg'otish hisoblanadi. Agar o'quvchi o'z oldida qo'yilgan vazifani bajarishdan maqsad nimaligini bilmasa, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qila olmaydi. Takomillashgan o'quv tizimida o'quvchi istaklari bilan tavsiya etilgan mavzu mos kelmasligi katta qiyinchiliklar tug'dirdi. Ba'zida o'qituvchilar o'tayotgan darslarida dastur mavzularini o'quvchida boshlang'ich istak asoslariga mos ravishda amalga oshirishda qiynaladilar. Bunda innovatsion texnologiyalar ular uchun zaruriy ko'mak bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni tez va oson o'zlashtirish maqsadida innovatsion pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Hozirgi davrda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham ta'lim jarayoning faolligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Shuning uchun ham ta'limda texnologik yondashuv katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimiga texnologik yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- ta'lim jarayoniga mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi kerak. Har bir o'qituvchi, avvalo, o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'tiladigan darsning maqsadini aniq belgilashi lozim. Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, integratsion va innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgarar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida integratsion va innovatsion texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov.U.N."Pedagogika darsi".T.: "O'qituvchi" -1997-yil.
2. Qayumova Sh.M. Boshlang'ich ta'lim tizimida fanlararo integratsiyaning ahamiyati. Proceedings of Ingenious Global Thoughts An International Multidisciplinary Scientific Conference.November 29th, 2020
3. Mavlonova R, Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi.T.:Ilm ziyo,-2009.24-bet
4. Panfilova A.P.Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Oliy o'quv yurtlari talabarlari uchun darslik /A.P.Panfilov,-M.,Akademiya,2009 y.
5. Файзиев, М. А. "Талабаларнинг билим ва кўникмаларини компьютер имитацион модели асосида шакллантириш методикаси («Информатика ва ахборот технологиялари» фани мисолида)." *П. ф. н. дисс. Самарқанд* (2008).
6. Fayziev, M. A. "Methods of formation of knowledge and skills of students on the basis of computer simulation model (on the example of the subject" Computer Science and Information Technology)": Dis.... Kand. ped. science." *Tashkent: TDPU* (2008).
7. Shadiev R. va boshqalar. Notanish o'quv muhitlarida mobil tillarni o'rganishni osonlashtirish uchun tanishtirish strategiyalari: strategiyalarni ishlab chiqish va ularni tasdiqlashni o'rganish //Innovatsion texnologiyalar va ta'lim: 5-xalqaro konferentsiya, ICITL 2022, Virtual tadbir, 29–31-avgust, 202-yillar. – Cham: Springer xalqaro nashriyoti, 2022. – S. 213-217.
8. Shadiev R. et al. Correction to: Familiarization Strategies to Facilitate Mobile-Assisted Language Learning in Unfamiliar Learning Environments: A Study of Strategies Development and Their Validation //Innovative Technologies and Learning: 5th International Conference, ICITL 2022, Virtual Event, August 29–31, 2022, Proceedings. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – C. C1-C1.
9. Lutfullaev, M. H., and M. A. Fayziev. "Basics of the Internet." (2001).
10. Shadiev R. et al. The effects of familiarity with mobile-assisted language learning environments on creativity //2022 International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT). – IEEE, 2022. – C. 242-244.